

MEDIATSIYA VA MUZOKARA USULIDA TIJORAT NIZOLARINI HAL ETISH**Rajabova Farangiz**

Toshkent davlat transport universiteti 4-kurs talabasi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14328579>

Annotatsiya. Maqolada tijorat nizolarini hal etishda mediatsiya va muzokara usullarining samaradorligi tahlil qilinadi. An'anaviy sud jarayonlariga nisbatan muqobil bo'lgan bu usullar, vaqt va xarajatlarni qisqartirish, shuningdek, tomonlar o'rtasida kelishuvga erishish imkoniyatini oshirish kabi afzalliklarga ega. Mediatsiya jarayonida neytral uchinchi tomon – mediator nizolashuvchi tomonlar o'rtasida konstruktiv muloqotni tashkil etishda yordam beradi, muzokara esa to'g'ridan-to'g'ri tomonlar o'rtasidagi kelishuv jarayonidir. Maqolada ushbu usullarning tijorat nizolarini hal etishda qo'llanish mexanizmlari, ularning yuridik asoslari va amaliyotdagi muvaffaqiyatli misollar keltirilgan. Muallif nizolarni muqobil usullar bilan hal etishning iqtisodiy va ijtimoiy jihatlarini ham yoritadi. Shuningdek, maqola O'zbekistonda mediatsiya va muzokaralar institutining rivojlanish istiqbollari haqida xulosalar beradi.

Kalit so'zlar: Mediatsiya, muzokara, nizo, konfrontatsiya, hakamlik sudi, kelishuv, arbitraj, ICC.

РАЗРЕШЕНИЕ КОММЕРЧЕСКИХ СПОРОВ ПУТЕМ МЕДИАЦИИ И ПЕРЕГОВОРОВ

Аннотация. В статье анализируется эффективность методов медиации и переговоров в разрешении коммерческих споров. Эти альтернативные методы по сравнению с традиционными судебными разбирательствами обладают такими преимуществами, как сокращение времени и затрат, а также увеличение вероятности достижения соглашения между сторонами. В процессе медиации нейтральная третья сторона — медиатор — способствует конструктивному диалогу между сторонами конфликта, тогда как переговоры представляют собой прямой процесс достижения соглашения между сторонами. В статье рассматриваются механизмы применения этих методов при разрешении коммерческих споров, их юридические основы и успешные практические примеры. Автор также освещает экономические и социальные аспекты разрешения споров альтернативными методами. Кроме того, в статье представлены выводы о перспективах развития института медиации и переговоров в Узбекистане.

Ключевые слова: Медиация, переговоры, спор, конфронтация, арбитражный суд, урегулирование, арбитраж, МТП (Международная торговая палата).

COMMERCIAL DISPUTE RESOLUTION THROUGH MEDIATION AND NEGOTIATION

Abstract. The article analyzes the effectiveness of mediation and negotiation methods in resolving commercial disputes. These alternative methods to traditional court proceedings offer advantages such as reducing time and costs, as well as increasing the likelihood of reaching an agreement between the parties. In the mediation process, a neutral third party—the mediator—facilitates constructive dialogue between the disputing parties, while negotiation is a direct process of reaching an agreement between the parties. The article discusses the mechanisms of applying these methods in resolving commercial disputes, their legal foundations, and successful practical examples. The author also highlights the economic and social aspects of resolving disputes through alternative methods. Additionally, the article provides conclusions on the prospects for the development of mediation and negotiation institutions in Uzbekistan.

Keywords: Mediation, negotiation, dispute, confrontation, arbitration court, settlement, arbitration, ICC.

KIRISH

Nizo (ixtilof, nifoq, mojaro, ziddiyat, qarama-qarshilik, kolliziya, konflikt) bugungi zamonaviy dunyoning ajralmas qismiga aylangan. Nizolar ijtimoiy hayotning turli sohalarida, jumladan, etnik, irqiy, milliy, oilaviy, mehnat, tijorat, biznes va g'oyaviy-mafkuraviy munosabatlar kontekstida yuzaga kelishi mumkin.

Nizo — bu odamlar, g'oyalar yoki manfaatlar o'rtasidagi munosabatlarda uyg'unlikning buzilishi, kelishmovchilik holati yoki qarama-qarshiliklarning to'qnashuvi hisoblanadi.

Boshqacha aytganda, nizo ijtimoiy tizimda muvozanatning yo'qolishi, tomonlar o'rtasidagi farq va ziddiyatlarning chuqurlashuvi natijasida yuzaga keladi.

Tijorat nizolari – bu xo'jalik yurituvchi subyektlar o'rtasida ularning iqtisodiy, moliyaviy, mulkiy yoki boshqa tijorat faoliyatiga oid manfaatlar to'qnashganida yuzaga keladigan kelishmovchiliklar va ziddiyatlar majmuasidir. Ushbu nizolar odatda xo'jalik yurituvchi subyektlar, tadbirkorlik bilan shug'ullanuvchi shaxslar yoki davlat organlari o'rtasida kelib chiqadi.¹

Tijorat nizolarining mohiyati shundaki, ular tadbirkorlik faoliyatining majburiy elementiga aylanib, korxonalar faoliyatining huquqiy va iqtisodiy jihatlari bilan bevosita bog'liq bo'ladi.

¹ Teshayev D. M. Mediatsiya nizolari hal qiluvchi vosita sifatida //Academic research in educational sciences. – 2024. – №. 3. – С. 593-597.

Tijorat munosabatlarning murakkablashishi, bozor iqtisodiyoti sharoitida raqobatning kuchayishi hamda shartnomaviy munosabatlarning rivojlanishi nizolarning paydo bo'lish ehtimolini oshiradi.

Nizolarni hal etish jarayoni insoniyat tarixining ajralmas qismi bo'lib, u jamiyatlarning rivojlanish darajasi va madaniyati bilan chambarchas bog'liq. Qadimgi Babil, Gretsiya va Rimda mediatsiya usulining qo'llanilishi bu yo'nalishda chuqur tarixiy ildizlar mavjudligini ko'rsatadi.

Ayniqsa, Rim huquqida mediatsiyaning Yustinian kodeksidan boshlab (miloddan avvalgi VI asr) rasmiy e'tirof etilishi ushbu usulning huquqiy tizimlar shakllanishida naqadar muhim rol o'ynaganini tasdiqlaydi. Mediatsiya Rimda nafaqat savdo nizolarini hal qilishda, balki jamiyatdagi tinchlikni saqlashda ham asosiy vositalardan biri bo'lgan. Mediatorlar – “medium”lar nafaqat huquqiy, balki ijtimoiy muhitda ham katta obro'ga ega bo'lib, dohiolar va ruhoniylar bilan teng qatorga qo'yilgan.

Zamonaviy davrda esa mediatsiya yangi ko'rinishda qayta tiklandi. XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab AQSh, Buyuk Britaniya va Avstraliya kabi davlatlarda mediatsiya va muzokara usullari faol rivojlandi. Bugungi kunda Yevropada mediatsiya nafaqat savdo yoki biznes nizolarida, balki oilaviy va ijtimoiy mojarolarni hal qilishda ham samarali vositaga aylangan. Bunday yondashuv nafaqat vaqt va xarajatlarni tejaydi, balki tomonlar o'rtasidagi kelishmovchiliklarni o'zaro hurmat asosida hal qilish imkonini beradi.

Xalqaro munosabatlarning kengayishi bilan davlatlar va xalqaro huquq subyektlari o'rtasida iqtisodiy nizolar kelib chiqish ehtimoli oshdi. Iqtisodiy nizolar – bu tadbirkorlar va yuridik shaxslar o'rtasida iqtisodiy faoliyat davomida yuzaga keladigan huquqiy kelishmovchiliklardir. Bunday nizolar, ayniqsa, chet el elementi ishtirok etgan hollarda, xalqaro xususiy huquq normalari asosida hal qilinadi. Masalan, O'zbekistonda chet el elementi bilan murakkablashgan nizolar xalqaro shartnomalar va milliy qonunchilikka muvofiq tartibga solinadi.

Bu jarayon mamlakatning xalqaro iqtisodiy hamkorlikni yanada rivojlantirishga qaratilgan siyosatining muhim qismi hisoblanadi.

Xalqaro huquq tinch yo'l bilan nizolarni hal qilish tamoyiliga asoslanadi. 1969-yilda qabul qilingan Vena konvensiyasida har qanday shartnoma bilan bog'liq nizolar faqat adolat va xalqaro huquq tamoyillariga muvofiq tinch yo'l bilan hal qilinishi kerakligi belgilangan. Bu tamoyil nafaqat davlatlararo munosabatlarda, balki korporativ va transmilliy nizolarda ham mediatsiya va muzokara usullarining ahamiyatini oshirmoqda.

ASOSIY QISM

Xalqaro xususiy huquqda nizolarni hal qilish jarayonida muqobil usullar tobora keng qo'llanilmoqda.

Bu usullar nizolarni sud orqali emas, balki tomonlarning o‘zaro kelishuvi asosida hal qilish imkoniyatini yaratadi. Shu munosabat bilan olimlar nizolarni muqobil hal qilish usullarining huquqiy tabiati va samaradorligi haqida turli yondashuvlarni ilgari surishmoqda. Masalan R. Fisher va W. Ury olimlar o‘zlarining mashhur “Getting to Yes” asarida muzokaralar jarayonining konstruktiv tomonlariga e’tibor qaratadilar. Ularning fikricha, muqobil nizolarni hal qilish usullari, xususan, muzokara va mediatsiya, tomonlar o‘rtasidagi qarama-qarshilikni yengish va umumiy manfaatlarga erishishning samarali yo‘lidir. Ular ushbu jarayonni nizolashuvchi tomonlarning har ikkisi uchun ham foydali bo‘lgan yechimni izlashini asosiy maqsad qilib qo‘yadi. Yana bir olim J.L.Riskin muqobil usullarning moslashuvchanligini tahlil qilib, “Riskin’s Grid” modelini taklif qiladi. Ushbu modelda mediatsiya va muzokaralar jarayonlari nizoning murakkabligiga qarab moslashtiriladi. Uning fikricha, har bir nizo o‘ziga xos bo‘lgani uchun uni hal qilishda yondashuv ham o‘zgartirilishi kerak. Bu yondashuv biznes va xalqaro nizolarni hal qilishda juda foydali hisoblanadi. Riskin Grid mediatsiyaning ikki asosiy usuli – evaluative (baholovchi) va facilitative (yo‘naltiruvchi) yondashuvlarni ajratib ko‘rsatadi. Baholovchi mediator tomonlarga qarorlarni ko‘rsatishga yoki maslahat berishga moyil bo‘lishi mumkin, yo‘naltiruvchi mediator esa, asosan, tomonlarga o‘zaro kelishuvga erishish uchun imkoniyat yaratib beradi

Bugungi kunda xalqaro xususiy huquqda iqtisodiy nizolarni hal qilishning muqobil usullari quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

1. Mediatsiya – tomonlarning o‘zaro kelishuvi asosida nizoni hal qilish;
2. Arbitraj – mustaqil hakamlilik sudlari orqali nizolarni hal qilish;
3. Muzokara – tomonlarning bevosita muzokaralari orqali kelishuvga erishish;
4. Konsilyatsiya – mustaqil vositachi ishtirokida masalani muhokama qilish va kelishuvga erishish.

Mediatsiya – (lotincha “mediatio”, inglizcha “mediation” – vositachilik) bu ikki yoki undan ortiq tomonlar o‘rtasidagi nizolarni uchinchi tomon – mediator ishtirokida muqobil hal qilishning samarali va universal texnologiyasi bo‘lib bu nizo bo‘yicha ma’lum bir kelishuvni ishlab chiqishga yordam beradi, tomonlar nizoni hal qilish to‘g‘risida qaror qabul qilish jarayoni va uni hal qilish shartlarini to‘liq nazorat qiladi. Shuningdek mediatorlar xulqining Yevropa kodeksida – “Mediatsiya – bu ikki yoki undan ortiq tomon ushbu tomonlarga nizoni sud qarorisiz kelishuv tartibida hal etishga yordam berish uchun uchinchi tomon – vositachini jalb qilishga rozilik berish orqali o‘tadigan istalgan jarayon”, deya ta’rif berilgan. **Mediator** – mustaqil, xolis va professional vositachi bo‘lib, nizolashayotgan tomonlarga o‘z pozitsiyalarini tushunishda va ular uchun maqbul bo‘lgan kelishuvni ishlab chiqishda yordam beradi.

Mediatsiya jarayonida tomonlar nizoni hal qilishning barcha shartlari va qarorlarini to'liq nazorat qiladi, bu esa ularning manfaatlari va qadriyatlariga mos yechim topishni ta'minlaydi.

Zamonaviy jamiyatda ijtimoiy, iqtisodiy, shaxslararo munosabatlarning rivojiga xizmat qiladigan va ijtimoiy tizimning barcha shakllarida – oila, iqtisodiyot, mehnat bozori, davlat ma'muriy amaliyotida keng qo'llaniladigan, hayotdagi turli xil nizolarni tinchlik, muzokara va murosa yo'li bilan hal etishning ilg'or va muqobil usuli mediatsiyadir.

Mediatsiyaning afzalligi shundaki, u nizoni hal qilishning tezkor, iqtisodiy jihatdan tejankor va insoniy yondashuvga asoslangan usulidir.

Mediatsiya jarayoni, odatda, quyidagi olti bosqichga bo'linadi:

1. **Mediatorning ochilish va kirish bayonoti**
2. **Nizolashayotgan taraflarning tushuntirishlari**
3. **Qo'shma sessiya**
4. **Kengash yoki alohida sessiya**
5. **Yakuniy muzokaralar va bitim tuzish**
6. **Yopilish (tugallanishi) ²**

Xalqaro xususiy huquq sohasida iqtisodiy nizolarni hal qilishning samarali usuli sifatida arbitraj sudlari katta ahamiyatga ega. **Arbitraj sudlari** – bu nodavlat tashkilotlar bo'lib, asosan, fuqarolik va iqtisodiy nizolarni tezkor va samarali yechishda yordam beradi. Ular, ayniqsa, xalqaro tijorat va investitsiya nizolarini hal qilishda qulay platforma hisoblanadi.

Arbitraj sudlarining asosiy afzalligi – tomonlarning ixtiyoriy roziligi asosida ish olib borilishi va ularning qaysi davlat huquqidan foydalanishni mustaqil belgilash imkoniyatidir.

Davlat sudlariga nisbatan arbitrajning jarayoni kamroq bosqichlardan iborat bo'lib, tomonlar uchun ko'proq moslashuvchanlikni ta'minlaydi. Bundan tashqari, arbitraj sudlarida xalqaro huquqiy normalardan foydalanish imkoniyati, ularning jozibadorligini oshiradi.

Arbitraj sudlari ikki asosiy shaklda bo'lishi mumkin:

1. Ad hoc arbitraj: Bu bir martalik tuziladigan arbitraj bo'lib, tomonlarning kelishuvi asosida nizolarni hal qilish uchun tashkil etiladi. Ad hoc arbitrajda tomonlar arbitraj jarayonining qoidalarini o'zlari belgilaydi.

2. Institutsional arbitraj: Bu doimiy faoliyat yurituvchi arbitraj sudlari bo'lib, ma'lum bir tashkilot tomonidan boshqariladi.

² Abdullo o'g'li D. D. Mediatsiya va uning bosqichlari //Proceedings of International Conference on Modern Science and Scientific Studies. – 2023. – T. 2. – №. 1. – C. 258-265.

Masalan, Xalqaro Tijorat Palatasi (ICC) yoki Xalqaro Investitsion Nizolarni Hal Qilish Markazi (ICSID) kabi arbitrajlar institutsional arbitrajarga misoldir.

Bugungi kunda xalqaro iqtisodiy munosabatlardan kelib chiqadigan ko'plab nizolar xalqaro arbitraj sudlarida hal etilmoqda. Davlat sudlarining murakkab va ko'p bosqichli jarayonlari ko'pincha tomonlarni qoniqtirmaydi, chunki bu jarayonlar ko'p vaqt va mablag' talab qiladi. Arbitraj sudlari esa, o'zining soddaligi, tezkorligi va maxfiyligi bilan ajralib turadi.

Masalan, ikki xalqaro kompaniya o'rtasida tuzilgan kontrakt bo'yicha nizolarni hal qilish uchun ular ICC arbitraj sudiga murojaat qilishlari mumkin. Bu sud xalqaro tijorat va investitsiya nizolarini tezkorlik bilan hal qilishda dunyodagi eng mashhur arbitraj sudlaridan biridir. ICC arbitraj sudi 1923-yilda tashkil etilgan bo'lib, hozirgi kungacha yuzlab murakkab nizolarni hal qilgan.

Bundan tashqari, Xalqaro Investitsion Nizolarni Hal Qilish Markazi (ICSID) – investitsiya nizolarini hal qilishda muhim o'rin tutadi. Ushbu markaz 1965-yilda qabul qilingan Vashington konvensiyasi asosida tashkil etilgan bo'lib, davlatlar va xorijiy investorlar o'rtasidagi nizolarni milliy yurisdiksiyadan chiqarib, xalqaro arbitraj maydoniga o'tkazadi.³

Arbitraj jarayoni bir qator xalqaro huquqiy hujjatlarga asoslanadi. Arbitraj sudi tomonlar kelishgan huquqiy normalardan foydalanadi. Agar tomonlar muayyan davlat huquqini tanlamagan bo'lsalar, nizo yuzaga kelgan davlat qonunchiligi yoki amaldagi xalqaro huquq normalari qo'llaniladi. Shu bilan birga, arbitraj qarorlari yakuniy hisoblanib, tomonlar uchun majburiy bo'ladi. Nyu-York Konvensiyasi (1958) xalqaro arbitraj sudlari qarorlarini tan olish va ijro etishning asosiy me'zoni hisoblanadi. Ushbu konvensiyaga ko'ra, arbitraj qarorlari ijrosi davlat sudlari tomonidan milliy qonunchilikka zid emasligi tekshirilganidan keyingina amalga oshiriladi.

Bu huquqiy tartib arbitraj qarorlarining xalqaro darajadagi e'tirofiga yordam beradi.

Muzokaralar — tomonlar o'z maqsadlariga erishish va umumiy yechim topish uchun olib boradigan muloqot jarayonidir. Ushbu jarayonda har bir tomon muammoni hal etishda teng imkoniyatlarga ega bo'lib, vaziyatni nazorat qilishga intiladi. Muzokaralar nizolarni hal qilishning eng oddiy, samarali va arzon vositalaridan biri bo'lib, ular iqtisodiyot sohasida ham keng qo'llaniladi. Chunki bu jarayon qo'shimcha xarajatlarga olib kelmaydi, xavf tug'dirmaydi va nizoni tinch yo'l bilan muhokama qilishga qaratilgan bo'ladi.

Muzokaralar odatda bir nechta bosqichlarda amalga oshiriladi. Birinchi bosqich – tayyorgarlik.

³ Shodiyorovich N. A. Xalqaro tijorat arbitrajida arbitraj bitimining ahamiyati // o'zbekistonda fanlararo innovatsiyalar va ilmiy tadqiqotlar jurnali. – 2023. – T. 2. – №. 18. – C. 601-606.

Bu bosqichda tomonlar muzokaraga tayyorgarlik ko'rib, o'z talablarini bildiradilar yoki nizoni qanday hal qilish bo'yicha o'z fikrlarini o'rta tashlaydilar. Keyingi bosqich – muzokara jarayoni. Bu yerda tomonlar o'z takliflarini muhokama qiladi va nizoni hal etish uchun umumiy yechimga erishishga intiladi. Nihoyat, uchinchi bosqich – muzokaralarni yakunlash va natijalarni tahlil qilish. Bu bosqichda tomonlar kelishuvga erishib, nizoni har ikki tomon uchun maqbul bo'lgan yechim bilan hal etadilar.

Muzokaralar ko'pincha mediatsiyaga o'xshash bo'lib, faqat mediatsiya jarayonini professional mediatorlar olib boradi. Muzokaralar esa bevosita tomonlarning o'zaro muloqoti asosida kechadi. Ushbu jarayonning boshqa nizolarni hal qilish usullariga nisbatan bir qator afzalliklari bor. Avvalo, muzokaralarda tomonlar bevosita birgalikda harakat qiladilar va munosabatlarning turli jihatlarini nazorat qilish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Masalan, muhokama vaqti hamda chegaralarni mustaqil ravishda belgilashlari mumkin. Shuningdek, ular jarayon va uning natijalariga bevosita ta'sir o'tkaza oladilar.⁴

O'zbekistonda xalqaro xususiy huquqqa oid iqtisodiy nizolarni hal etish uchun mediatsiya, arbitraj va boshqa muqobil usullar keng qo'llaniladi. Fuqarolik kodeksiga ko'ra, jismoniy va yuridik shaxslar o'z huquqlarini himoya qilish uchun sud, iqtisodiy sud yoki arbitrajga murojaat qilishlari mumkin. Mediatsiya "Mediatsiya to'g'risida"gi qonun bilan, arbitraj esa "Xalqaro arbitraj faoliyati to'g'risida"gi qonun bilan tartibga solinadi.

Mediatsiya taraflar xohishiga asoslangan bo'lib, sud jarayonidan oldin yoki sud davomida qo'llanilishi mumkin. Mediatsiya orqali erishilgan kelishuv sudga yuborilib, darhol huquqiy kuchga ega bo'ladi. Bu jarayon maxfiylikni saqlab, tomonlarga moslashuvchanlik yaratadi.

Arbitraj sudlari, xususan, Toshkent xalqaro arbitraj markazi (TIAC), chet el elementlari ishtirokidagi iqtisodiy nizolarni hal qilish uchun qulay platforma hisoblanadi. Bu usul jarayonni qisqartiradi, taraflarga arbitrlar sonini va qo'llaniladigan huquqni tanlash imkonini beradi.

O'zbekistonda nizolarni hal etishda mediatsiya va arbitraj keng qo'llanilayotgan bo'lsa-da, ekspert xulosasi usuli kamroq ishlatiladi. Umuman olganda, taraflar xalqaro va milliy qonunchilikka muvofiq o'zlari uchun maqbul usulni tanlab, nizoni hal etishlari mumkin.

XULOSA.

Tijorat nizolarini hal etishda mediatsiya va muzokara usullari zamonaviy huquqiy muhitda samarali va muqobil yechimlar sifatida e'tirof etiladi. Bu usullar nizolarni sudgacha hal qilish imkoniyatini yaratib, vaqt va xarajatlarni tejashga xizmat qiladi.

⁴ Fotima T. A. Xalqaro xususiy huquqda iqtisodiy nizolarni hal qilishning muqobil usullari //Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. – 2023. – T. 3. – №. 10. – C. 117-126

Mediatsiya jarayonida nizolar maxsus tayyorgarlikdan o'tgan, betaraf mediator ishtirokida hal etiladi. Bu usul nizolashayotgan tomonlarning o'zaro ishonchiga asoslangan bo'lib, natijada barcha tomonlarning manfaatlariga mos keladigan kelishuvga erishish mumkin. Muzokaralarda esa tomonlar bevosita muloqot orqali o'z pozitsiyalarini muhokama qilib, nizoni tinch yo'l bilan hal qilishga intiladilar. Bu usulda tomonlarning o'zaro birgalikdagi harakati hamda maxfiylikning saqlanishi asosiy afzalliklardan biridir.

Mediatsiya va muzokara usullari sud jarayonlariga nisbatan ancha tezkor, iqtisodiy jihatdan arzon va moslashuvchan bo'lib, tomonlar uchun xavfsiz muhit yaratadi. Ular nafaqat nizoni hal qilishni, balki kelgusida hamkorlikni davom ettirish imkoniyatlarini saqlab qolishni ta'minlaydi.

Shunday qilib, ushbu usullar tijorat nizolarini hal qilishda o'z ahamiyatini oshirib bormoqda va kelajakda ham keng qo'llanishiga ishonch bildirsa bo'ladi.

REFERENCES

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 01.05.2023
2. O'zbekiston Respublikasining 03.07.2018 yildagi O'RQ-482-son "Mediatsiya to'g'risida" gi qonuni // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son //
3. O'zbekiston Respublikasi 16.02.2021 yildagi O'RQ-674-son "Xalqaro tijorat arbitraji to'g'risida" gi qonuni Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 17.02.2021-y., 03/21/674/0123-son
4. Омонжорова К., Ачилова Л. The effectiveness of alternative methods of commercial dispute resolution: a comparative analysis of arbitration and mediation //Общество и инновации. – 2024. – Т. 5. – №. 3/5. – С. 125-130.
5. Shodiyorovich N. A. Xalqaro tijorat arbitrajida arbitraj bitimining ahamiyati //o'zbekistonda fanlararo innovatsiyalar va ilmiy tadqiqotlar jurnali. – 2023. – Т. 2. – №. 18. – С. 601-606.
6. Abdullo o'g'li D. D. Mediatsiya va uning bosqichlari //Proceedings of International Conference on Modern Science and Scientific Studies. – 2023. – Т. 2. – №. 1. – С. 258-265.
7. Fotima T. A. Xalqaro xususiy huquqda iqtisodiy nizolarni hal qilishning muqobil usullari //Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. – 2023. – Т. 3. – №. 10. – С. 117-126.
8. Teshayev D. M. Mediatsiya nizolarni hal qiluvchi vosita sifatida //Academic research in educational sciences. – 2024. – №. 3. – С. 593-597.